

## XALQARO VA MILLIY HUQUQ TIZIMIDA "GENOTSID" JINOYATI TAHLILI

**Eshburiyev Shohrux Akram o'g'li**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya unviversiteti,  
Xalqaro huquq fakulteti talabasi,  
shohruxeshboriyev86@gmail.com*

**Ibrohimov Shohjahon Yodgorjon o'g'li**

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya unviversiteti,  
Xalqaro huquq fakulteti talabasi,  
shohjahonibrohimov2007@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu ilmiy maqolada genotsid jinoyatining milliy va xalqaro huquq tizimidagi ahamiyati, huquqiy ta'rifi va tarixiy o'rni tahlil qilinadi. Xalqaro huquq doirasida BMT tomonidan 1948-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Genotsid konvensiyasi" asosida genotsid insoniyatga qarshi jinoyat sifatida belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslar Xalqaro Jinoyat Sudi va milliy qonunchilikka ko'ra javobgarlikka tortilishi mumkin. Ushbu maqolada mamlakatimizning mazkur konvensiyaga qo'shilishi, milliy qonunchilikda genotsidga oid normalarning mavjudligi va ularning xalqaro standartlarga mosligi o'rganiladi. Shuningdek, tarixda ro'y bergan va hozirgi kunda bo'layotgan genotsid jinoyatining dunyodagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida genotsidga qarshi kurashish uchun xalqaro va milliy huquqiy tizimini takomillashtirish g'oyalari ilgari suriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Genotsid, Xalqaro Jinoyat Sudi, Etnik guruh*

## ANALYSIS OF THE CRIME OF "GENOCIDE" IN THE INTERNATIONAL AND NATIONAL LEGAL SYSTEM

**Abstract:** *This scientific article analyzes the significance, legal definition, and historical context of the crime of genocide within national and international legal systems. Under international law, genocide is recognized as a crime against humanity based on the "Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide" adopted by the United Nations on December 9, 1948. Individuals who commit this crime may be held accountable under both the International Criminal Court and national legislation. The article examines Uzbekistan's accession to this convention, the presence of genocide-related norms in national legislation, and their alignment with international standards. It also explores the global relevance of past and ongoing acts of genocide. As a result of the research, proposals are put forward to improve both international and national legal frameworks in the fight against genocide.*

**Key Words:** *Genocide, International Criminal Court, Ethnic group*

## АНАЛИЗ ПРЕСТУПЛЕНИЯ «ГЕНОЦИД» В МЕЖДУНАРОДНОЙ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРАВОВОЙ СИСТЕМЕ

**Аннотация:** В данной научной статье анализируются значение, юридическое определение и исторический контекст преступления геноцида в национальных и международных правовых системах. Согласно международному праву, геноцид признан преступлением против человечности на основании «Конвенции о предупреждении преступления геноцида и наказании за него», принятой Организацией Объединенных Наций 9 декабря 1948 года. Лица, совершившие это преступление, могут быть привлечены к ответственности как в соответствии с Международным уголовным судом, так и в соответствии с национальным законодательством. В статье рассматривается присоединение Узбекистана к этой конвенции, наличие норм, касающихся геноцида, в национальном законодательстве и их соответствие международным стандартам. Также рассматривается глобальная значимость прошлых и текущих актов геноцида. В результате исследования выдвигаются предложения по совершенствованию как международной, так и национальной правовой базы в области борьбы с геноцидом.

**Ключевые слова:** Геноцид, Международный уголовный суд, Этническая группа

### KIRISH

Genotsid bu insoniyat tarixidagi eng og'ir jinoyatlardan biri bo'lib, butun bir, etnik guruh, irq, millat yoki diniy jamoani yo'q qilishga qaratilgan ongli va rejalashtirilgan siyosiy harakatni anglatadi. XX asr insoniyat tarixida eng dahshatli jinoyatlardan biri genotsid jinoyati bilan bog'liq bo'lgan davr sifatida e'tirof etiladi. \

Turli davlatlar tomonidan ma'lum bir millat, elat, diniy yoki etnik guruhni butunlay yoki qisman yo'q qilishga qaratilgan siyosatlar global xavfsizlik va xalqaro tinchlikka jiddiy tahdid solib kelgan. XX asrning birinchi yarmidan boshlab xalqaro hamjamiyat ushbu hodisaning dahshatli oqibatlarini chuqur anglay boshladi va uni huquqiy jihatdan baholash zarurati paydo bo'ldi.

Mazkur holat BMT tomonidan genotsid jinoyatini oldini olish va aybdorlarni javobgarlikka tortish bo'yicha qat'iy huquqiy mexanizmlarni shakllantirishni taqozo etdi. Shu bois, 1948-yil 9-dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan "Genotsid jinoyatining oldini olish va u uchun javobgarlik to'g'risida"gi konvensiya[1] bu sohaga oid asosiy xalqaro-huquqiy hujjat sifatida maydonga chiqdi. Ushbu konvensiya genotsidni insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyat sifatida belgilab, uni sodir etgan shaxslarning xalqaro miqyosda javobgarligini nazarda tutadi.

Ushbu konvensiya insoniyatga qarshi jinoyatlarni jazolashda normativ asos bo'lib xizmat qildi va xalqaro huquqda yangi bosqichni boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi ham mazkur konvensiyaga qo'shilgan holda xalqaro mezonlarga mos ravishda milliy qonunchilikda genotsidga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini

mustahkamladi. Genotsid mavzusining dolzarbligi bugungi kunda ham kamaygani yo'q. Zamonaviy qurolli mojarolar, etnik ziddiyatlar, diniy asosdagi zulm kabi holatlar ushbu jinoyatning turli ko'rinishlarda davom etish xavfini ko'rsatadi. Adabiyotlarda genotsidning tarixiy ildizlari, siyosiy sabab va oqibatlari, xalqaro javobgarlik mexanizmlarining samaradorligi, shuningdek, BMT, Xalqaro sud va Xalqaro jinoiy sudning ushbu sohadagi roli keng yoritilgan. Normativ asoslar sifatida esa yuqoridagi konventsiya, BMT Nizomi, xalqaro odatiy huquq normalari, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 153-moddasi[2] hamda inson huquqlari bo'yicha boshqa xalqaro bitimlar muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Hozirda ko'plab ilmiy ishlarda siyosiy irodasizlik, xalqaro sud amaliyotidagi murakkabliklar, davlatlarning majburiyatdan bo'yin tovlashi kabi omillar genotsidning oldini olishda hal qiluvchi to'siqlar sifatida ko'rsatib o'tilmoqda. Shu sababli, mavzuning o'rganilishi nafaqat nazariy ahamiyatga, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Bu tadqiqotda genotsid jinoyatini milliy va xalqaro huquq tizimlarida o'rganishda empirik va qiyosiy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik sifatida empirik hamda qiyosiy-huquqiy usullarni tanlashdan maqsad shu ediki, genotsid jinoyati nafaqat nazariy tushuncha, balki amaliy tajriba orqali o'z ifodasini topuvchi global huquqiy muammo sifatida namoyon bo'lishi hamdir. Empirik yondashuv yordamida xalqaro sud amaliyoti ya'ni Xalqaro jinoiy sud qarorlari o'rganilib, genotsidni aniqlash, isbotlash va jazolashdagi real tajribalar tahlil qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Genotsid konvensiyasi va mavjud huquqiy siyosati doirasida bu jinoyatga oid normativ asoslar o'rganildi. Bunda qonun me'yorlarining amalda qo'llanish samaradorligi va ularning xalqaro standartlarga mosligi aniqlashga harakat qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali esa xalqaro huquqdagi genotsid tushunchasi va milliy qonunchilikdagi yondashuv o'rtasidagi o'xshashliklar hamda farqlar tahlil qilindi. Bu usul yordamida milliy huquqni xalqaro normalarga yanada yaqinlashtirish imkoniyatlari aniqlanib, ularni samaraliroq qilish yo'nalishlari belgilandi. Tanlangan metodologiya usullari genotsid jinoyatini nazariy va amaliy jihatdan chuqurroq o'rganish, xalqaro tajribani milliy huquq tizimi bilan uyg'unlashtirish hamda bu yo'nalishda alohida ilmiy takliflar ishlab chiqish uchun imkoniyatlar beradi.

Genotsid jinoyatini o'rganish ko'p qirrali yondashuv va mehnat talab qiladi. Nazariy adabiyotlar asosiy tushuncha va huquqiy doirani bersa, empirik tadqiqotlar bu nazariyalarning amaliyotda qanday ishlatilishini ko'rsatadi, qiyosiy tahli esa turli hodisa va tizimlarni solishtirish orqali mavzuning chuqurroq tushunilishiga imkon beradi. Biz shulardan foydalangan holda Milliy va xalqaro huquq tizimida "Genotsid" jinoyati tahlili nomli maqolamizga adabiyotlar sharhini yozamiz. Genotsid tushunchasining huquqiy asosini 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasining 260 (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan "Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risidagi" konvensiya tashkil etadi. Ushbu hujjat genotsidni biror milliy, etnik yoki diniy guruh a'zolarini qasddan o'ldirish, guruh a'zolarining jismoniy yoki aqliy salomatligiga jiddiy zarar yetkazish,

guruh ichidagi tug'ilishni qasddan cheklash va bolalarni bir guruhdan boshqasiga majburan ko'chirish kabi harakatlar sifatida belgilaydi. Milliy huquq tizimida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 153-moddasida ham genotsid uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bu xalqaro huquq normalari bilan uyg'unlashishga xizmat qiladi. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga to'liq moslashtirishda ayrim tafovutlar mavjud. Empirik tadqiqotlar genotsid nazariyalarining amaliyotda qanday ishlashini ko'rsatadi. Saidxon Saidolimov va Gulzoda Abdusamatovanning "Kurdlar muammosi Yaqin sharqdagi siyosiy beqarorlikning ta'sirchan omili sifatida" maqolasida genotsidning zamonaviy siyosatda qanday namoyon bo'lishini kurdlar misolida ko'rsatiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan va Yaqin sharqdagi beqarorliklardan biri sifatida ko'rsatilgan kurd millatining o'z davlatini qurush va milliy mustaqillikka chiqishi muammosi eng asosiy va murakkab muammolardan biri ekanligi. Bu harakatlar Iroqda Sadam Husaynni hokimiyat tepasiga kelishi bilan Eron va Iroq o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayishi shuningdek, Turkiya va Suriya o'rtasidagi munosabatlar sababli to'rt davlatda yashovchi kurdlarning bir-biridan yakkalanib qolishiga sabab bo'lishi, bu esa kurdlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishiga jiddiy ta'sir qilganligini bilishimiz mumkin. Kurdlarning o'z davlatini yaratishga intilishi shunda aks etadiki, ular o'z tilini, dinini, an'anasini va qadriyatlarini ko'p yillardan keyin ham saqlab qolganligidir. Kurdistonni tashkil etish muammosi jahon miqyosiga chiqayotganligi, bunga Turkiya, Suriya, Iroq va Eronning bu masalaga qarshiligi hech kimga sir emas. Lekin kurdlar o'z milliy davlatini tashkil etish uchun Yaqin Sharqdagi harakatini davom ettirmoqda. 1979-yilda Eronda shoh rejimi ag'darilgach, hukumat qo'shinlari va kurd isyonchilari o'rtasida jangovar harakatlar boshlanadi ko'plab kurdlar o'ldirilgach bunga sababchi qilib AQSH ko'rsatiladi. Ammo bu ayblov asossiz bo'lib chiqadi. Bu to'rt islom mamlakatining asosiy maqsadi qay yo'sinda bo'lmasin Kurdiston davlatini qurilishiga to'sqinlik qilishdir. Xulosa qilib aytganda, genotsid jinoyatini o'rganish ko'p qirrali yondashuvni talab qiladi: nazariy adabiyotlar asosiy tushuncha va huquqiy doirani, empirik tadqiqotlar esa bu nazariyalarning amaliyotda qanday ishlashini ko'rsatadi.

Genotsid nafaqat insoniyat tarixidagi qora sahifa, balki hozirgi zamonaviy dunyoda ham davom etayotgan global muammolardan biri sanaladi. BMT Bosh Assambleyasining 1948 yil 9 dekabrda 260 (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan bu konvensiyada qaysi harakatlar genotsid jinoyati ekanligi ko'rsatilgan, ya'ni biror bir shaxsni milliy va etnik sabalarga ko'ra o'ldirish, badaniga jiddiy zarar yetkazish va guruh ichidagi tug'ilishning oldini olish, bolani bir insoniy guruhdan boshqasiga majburan o'tkazish genotsidning asosiy belgisi ekanligi yozib o'tilgan. Shuningdek genotsid, genotsid sodir etish uchun fitna uyushtirish, genotsid sodir etishga to'g'ridan-to'g'ri va ommaviy qo'zg'atish, genotsidga urinish, genotsidda ishtirok etish kabi xatti-harakatlar jazolanadi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 153-moddasida Genotsid jinoyati haqida shunday deyilgan, ya'ni milliy, etnik, irqiy yoki diniy mansubligiga qarab, bir guruh shaxsning jismonan to'la yoki qisman qirilib ketishiga olib keladigan turmush

sharoitini qasddan yaratish, bunday shaxslarni jismonan to'la yoki qisman qirib yuborish, bola tug'ilishini zo'rlik bilan kamaytirish yoxud bolalarni ana shu odamlar guruhidan olib, boshqasiga topshirish, shuningdek, bunday harakatlar sodir etish to'g'risida buyruq berish genotsid jinoyati ekanligi va bu jinoayt uchun o'n yildan yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishligini ko'rishimiz mumkin.

Saidxon Saidolimov va Gulzoda Abdusamatovaning "Kurdlar muammosi Yaqin sharqdagi siyosiy beqarorlikning ta'sirchan omili sifatida"[4] maqolasida genotsidning zamonaviy siyosatda qanday namoyon bo'lishini kurdlar misolida ko'rsatiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan va Yaqin sharqdagi beqarorliklardan biri sifatida ko'rsatilgan kurd millatining o'z davlatini qurush va milliy mustaqillikka chiqishi muammosi eng asosiy va murakkab muammolardan biri ekanligi.

Bu harakatlar Iroqda Sadam Husaynni hokimiyat tepasiga kelishi bilan Eron va Iroq o'rtasidagi ziddiyatlar kuchayishi shuningdek, Turkiya va Suriya o'rtasidagi munosabatlar sababli to'rt davlatda yashovchi kurdarning bir-biridan yakkalanib qolishiga sabab bo'lishi, bu esa kurdarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishiga jiddiy ta'sir qilganligini bilishimiz mumkin.

Kurdarning o'z davlatini yaratishga intilishi shunda aks etadiki, ular o'z tilini, dinini, an'anasini va qadiriylarini ko'p yillardan keyin ham saqlab qolganligidir. Kurdistonni tashkil etish muammosi jahon miqyosiga chiqayotganligi, bunga Turkiya, Suriya, Iroq va Eroning bu masalaga qarshiligi hech kimga sir emas.

Lekin kurdlar o'z milliy davlatini tashkil etish uchun Yaqin Sharqdagi harakatini davom ettirmoqda. 1979-yilda Eronda shoh rejimi ag'darilgach, hukumat qo'shinlari va kurd isyonchilari o'rtasida jangovar harakatlar boshlanadi ko'plab kurdlar o'ldirilgach bunga sababchi qilib AQSH ko'rsatiladi.

Ammo bu ayblov asossiz bo'lib chiqadi. Bu to'rt islom mamlakatining asosiy maqsadi qay yo'sinda bo'lmasin Kurdiston davlatini qurilishiga to'sqinlik qilishdir.

Daryo.uz saytidagi ma'lumotlarga ko'ra, 1956-yildan 2016-yilgacha dunyo bo'ylab 43 ta genotsid sodir etilganligi va bu sababli dunyo bo'yicha 50 mln inson halok bo'lganligini bizga sir emas.

XX asrda dunyo ko'plab genotsidlarga duch keladi ulardan armanlar genotsidi, kurdlar genotsidi, SSSR davridagi genotsid va yahudiylar genotsidini biz keltirishimiz mumkin.

Kun.uz sayitidagi «67 ming qurbon» – G'azodagi[8] Isroil genotsidining ikki yilligi raqamlarda nomli statistik ma'lumotga ko'ra so'nggi 24 oy ichida Isroil harbiy hujumlari oqibatida G'azo aholisining 10 foizidan ko'prog'i o'ldirildi yoki yaralandi. G'azo sektordagi uylar, maktablar, shifoxonalarning 80 foiz binolari vayron qilingan.

Yaqin Sharqda ilk bor inson qo'li bilan yaratilgan ocharchilik yuzaga keldi. Ikki yil davom etgan Isroil hujumlarida kamida 67 ming falastinlik musulmonlar halok bo'lgan.

Yana minglab odamlar vayronalar ostida qolgan. Bu har 33 kishidan biri, ya'ni urushgacha bo'lgan aholining taxminan 3 foizi halok bo'lganini bildiradi.

Kun.uz saytidagi "Aniq aytaman: bu genotsid"[6] deb nomlangan intervyuda Isroil harbiy floti tomonidan qo'lga olingan «Global Sumud Flotillasi» ishtirokchilaridan biri 22 yoshli shved ekologik faoli Greta Tunberg dushanba kuni ilk bor omma oldida chiqish qilib Isroilning bosqinchilik harakatlari haqida shuningdek, hibsda bo'lgan paytda kaltaklangani va Isroil bayrog'ini o'pishga majbur etilgani, Isroilning asosiy maqsadi butun boshli xalqni yo'q qilish ekanligini haqida ommaga aytib berganligi borasida so'z boradi.

BMT Konvensiyasi va O'zbekiston JKning 153-moddasi o'rtasidagi qiyosiy tahlil quyidagi jihatlarni ochib beradi: ikkala hujjat ham genotsidni xalqaro jinoyat sifatida tan oladi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi BMT Konvensiyasidagi barcha asosiy belgilarni o'z ichiga oladi va milliy huquq xalqaro normalarni amalda qo'llashga yordam beradi.

Kurdlar va falastinliklar holatini solishtirish orqali quyidagi o'xshashliklar mavjudligini bilishimiz mumkin: ikkala holatda ham milliy mustaqillik va o'z-o'zini boshqarish huquqi masalasi mavjud, ammo kuchli davlatlar tomonidan siyosiy va harbiy bosim amalga oshirilishi sababli xalqaro huquqning roli va uning amalda qo'llanilishi qiyin masala bo'lib qolmoqda.

Bu muammoni chuqurroq tahlil qilish va yechish uchun quyidagi sohalarda qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Bular amaliy jazo mexanizmlarini takomillashtirish, buning uchun xalqaro va milliy sudlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish kerak deb o'ylayman, shuningdek dalillarni to'plash va saqlash mexanizmlarini takomillashtirish kerak va aybdorlarni jazolashning samarali usullarini ishlab chiqish lozim va shart. Statistik va ilmiy asoslashni takomillashtirish zarur, buning uchun genotsid holatlarini aniqlashtirish qurbonlar soni va jinoyat og'irlik darajasini aniq hisoblagan holda bu jinoyatni sodir etgan har bir davlat tashkilot yoki insonlarga jinoiy jazoning aniq qo'llanilishini nazorat qilish lozim.

Insonlarning genotsid jinoyati haqida qanday tushunchaga ega ekanligi, bu jinoyatning dolzarbligi va uni to'xtatish bo'yicha yechimlarini aniqlash uchun anonim tarzda "Google forms" orqali so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma 13 ta savoldan iborat bo'lib, quyidagi bo'limlarni qamrab oldi: umumiy ijtimoiy ma'lumotlar, inson hayoti qadri, genotsid tushunchasi, dolzarbligi, sabablari va yechimlari. Olingan ma'lumotlar diagramma va umumiy jadval shaklida tahlil qilindi.

So'rovnoma natijalari ilmiy xulosalarni empirik dalillar bilan asoslashga xizmat qildi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari jamoatchilikning genotsid jinoyati borasidagi xabardorlik darajasini, uning dolzarbligiga bo'lgan munosabatini va huquqiy bilimlarning umumiy holatini aniqlab berdi. So'rovnomada asosan yoshlar (16-25 yosh) hamda o'rta va oliy ta'limga ega bo'lganlar ishtirok etgan.

#### Genotsid jinoyati bo'yicha so'rovnoma natijalari (umumiy jadval)

№	Savol mazmuni	Javoblar va ulushi	Xulosa
1	Ishtirokchilarning yoshi	16-25 yosh asosiy qism; 25-50 va 50+ - kamroq	So'rovnomada asosan yoshlar qatnashgan

2	Ta'lim darajasi	O'rta ta'lim -48%, Oliy - 42%, O'rta-maxsus - 6%	Ishtirokchilarning aksariyati o'rta va oliy ta'limga ega
3	Jinsi	Erkaklar - 56%, Ayollar - 44%	Erkaklar biroz faolroq
4	Inson huquqlari bilan tanishlik	Juda yaxshi - 30%, O'rtacha - 58%, Kam - 12%	Ko'pchilik o'rtacha bilimga ega
5	Boshqalarning hayoti siz uchun qadrlimi?	Ha - 90%, Yo'q - 10%	Aksariyat inson hayotini qadrlaydi
6	Genotsid haqida ma'lumotlilik	Juda yaxshi - 38%, Kam - 26%, Yo'q - 38%	38% bu tushunchani umuman bilmaydi
7	Genotsid mavzusining dolzarbligi	Ha - 58%, Ishonchsiz - 34%, Yo'q - 8%	Mavzu dolzarb deb baholangan
8	Genotsidga guvoh bo'lganlik	Ha - 46%, Yo'q - 44%	Qariyb yarmi shunday holatni kuzatgan
9	Genotsid uchun jazo turi	Ozodlikdan mahrum qilish -42%, Umrbod - 24%, O'lim - 22%, Jarima -10%, Osish -2%	Ko'pchilik qattiq jazodan tarafdor
10	Genotsid sabablari	Din nizolari - 48%, Milliy-etnik nizolar - 44%, Iqtisodiy tengsizlik - 30%	Asosiy sabab diniy va etnik kelishmovchilik
11	Yechimlar	Xalqaro organ tashkil etish - 50%, Jazo tizimini kuchaytirish - 34%, Do'stlikni mustahkamlash - 34%, Hamjihatlik - 1%	Eng ko'p qo'llab-quvvatlangan yechim xalqaro organ
12	Ma'lum genotsid misollari	G'azo, Kurdlar, Qrim-tatar genotsidlari	Ishtirokchilar dolzarb voqealardan xabardor
13	Taklif va fikrlar	Diniy bag'rikenglik, xalqaro tashkilot tuzish, tinchlikni ta'minlash	Fuqarolar tinchlik va birdamlik tarafdori

O'tkazilgan so'rovnoma va normativ-huquqiy hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, genotsid jinoyati haqida ko'pchilikda yetarlicha ma'lumot va huquqiy bilim yo'q. Aksariyat ishtirokchilar bu jinoyatni dolzarb deb o'ylaydi, ammo milliy va xalqaro huquq normalari haqida xabardor emas. Jamoatchilikning 52% genotsidning asosiy sababi sifatida millatchilikni ko'rsatishi, aynan shu yo'nalishda targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarurligini anglatadi. Bundan ko'rinib turibdiki, eng avvalo jamoatchilikka ijtimoiy va huquqiy tomondan inson qadrini va insonparvarlik normalarni kengroq targ'ib qilish kerak. Zero, Konstitutsiyamizning 25-moddasida aytilganidek: "Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqi va uni buzishga hech kim haqli emas". Shuningdek, genotsid bilan kurashish uchun xalqaro organlarning rolini tubdan isloh qilish va millatlararo tinchlik va totuvlikni saqlash kerak."Genotsid jinoyatining oldini

olish va jazolash to'g'risidagi" konvensiya muhim huquqiy asos bo'lsa-da, konvensiyaning bajarilishini nazorat qilishi kerak bo'lgan organ (Xalqaro Sud) faoliyatida jiddiy kamchiliklar kuzatilmoqda. Masalan, G'azo sektori va kurdlar genotsidi. Isroil nechi yillardan beri Falastinlik tinch aholini qirmoqda, ammo, Xalqaro Sud bunga qarshi hech qanday chora ko'rmayapti. Bu esa konvensiyaning asosiy kamchiligidir. Bunday holatlar konvensiyada nazarda tutilgan huquqiy mexanizmlar siyosiy bosimlar ostida zaiflashayotganini, ayniqsa, Xalqaro Sudning rolini tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatadi. Konvensiya a'zolari o'rtasida siyosiy iroda yetishmasligi genotsidning oldini olish va uni jazolashda asosiy to'siq bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 153-moddasida genotsid uchun javobgarlik belgilanishi mamlakatning xalqaro majburiyatlarni bajarayotganligidan dalolat beradi. Biroq, tahlil shuni ko'rsatadiki, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, huquq mexanizmlarini kuchaytirish va jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirish zarur. Tadqiqotning eng muhim jihati shundaki, nazariy huquqiy normalarning amaliyotdagi samarasizligi (Xalqaro Sud harakatsizligi), huquqiy ongni oshirish zarurligi bilan uyg'unlashadi. Bu ilmiy tahlil genotsidga qarshi kurashning nafaqat huquqiy, balki insoniy va axloqiy majburiyat ekanligini, hamda insoniy qadriyatlar va o'zaro hurmat asosida qurilgan jamiyatni shakllantirish muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqotning asosiy metodologik sifatida empirik hamda qiyosiy-huquqiy usullarni tanlashdan maqsad shu ediki, genotsid jinoyati nafaqat nazariy tushuncha, balki amaliy tajriba orqali o'z ifodasini topuvchi global huquqiy muammo sifatida namoyon bo'lishi hamdir. Empirik yondashuv yordamida xalqaro sud amaliyoti ya'ni Xalqaro jinoiy sud qarorlari o'rganilib, genotsidni aniqlash, isbotlash va jazolashdagi real tajribalar tahlil qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Genotsid konvensiyasi va mavjud huquqiy siyosati doirasida bu jinoyatga oid normativ asoslar o'rganildi. Bunda qonun me'yorlarining amalda qo'llanish samaradorligi va ularning xalqaro standartlarga mosligi aniqlashga harakat qilindi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali esa xalqaro huquqdagi genotsid tushunchasi va milliy qonunchilikdagi yondashuv o'rtasidagi o'xshashliklar hamda farqlar tahlil qilindi. Bu usul yordamida milliy huquqni xalqaro normalarga yanada yaqinlashtirish imkoniyatlari aniqlanib, ularni samaraliroq qilish yo'nalishlari belgilandi. Xalqaro tajribani milliy huquq tizimi bilan uyg'unlashtirish hamda bu yo'nalishda alohida ilmiy takliflar va yechimlar ishlab chiqish uchun imkoniyatlar beradi. Bularga; Genotsid jinoyatining ma'nosini va asosiy belgilarini ilmiy asosda tahlil qilish. Genotsid tushunchasining tarixiy rivojlanishini jarayonini o'rganish. Bu jinoyatning xalqaro huquqda mustahkamlanish jarayonini o'rganish. 1948-yilgi BMT Konvensiyasining qabul qilish jarayoni va genotsid jinoyatining belgilovchi me'yorlarni tahlil qilish. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida genotsid jinoyatini tartibga soluvchi moddalarning mazmunini tahlil qilish. Milliy qonunchilikdagi xalqaro me'yorlarga nisbatan o'xshashlik va farqlarni aniqlash. Genotsid jinoyatini oldini olish,

aniqlash va jazolash mexanizmlarini tahlil qilib, ularni takomillashtirish yo'llarini belgilash. Xalqaro huquqiy tajribalar asosida O'zbekiston qonunchiligini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Genotsid jinoyatini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish. Agar O'zbekiston Respublikasining genotsid jinoyatiga oid milliy qonunchilik tizimi xalqaro huquq normalari va Xalqaro jinoiy sud amaliyoti bilan bog'lansa, genotsid jinoyati uchun javobgarlik tizimi yanada samarali va adolatli bo'ladi. Bu esa, milliy qonunchilikdagi mavjud bo'shliqlarni bartaraf etish, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini samaraliroq va xalqaro huquqiy majburiyatlarni to'liq bajarishga sharoit yaratadi.

#### Xulosa

Hozirgi zamonda genotsidga qarshi kurashishda quyidagi vazifalar eng muhim asos hisoblanadi: xalqaro va milliy huquq sohasining o'zaro hamjihatligini ta'minlash, genotsidning oldini olish mexanizimini yaxshilash, madaniy va huquqiy ongini oshirish va jahon hamjamiyatining genotsidga qarshi birgalikda harakat qilishini ta'minlash kerak. Mamlakatimiz, balki butun jahon hamjamiyat davlatlari va tashkilotlari genotsid kabi og'ir jinoyatlarga qarshi kurashishda birdamlik va hamjihatlik namunasini ko'rsatishi zarur. Buning uchun nafaqat huquqiy normalarni takomillashtirish, balki insoniy qadriyatlar va o'zaro hurmat asosida qurilgan jamiyatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Genotsidga qarshi kurash nafaqat huquqiy, balki insoniy va axloqiy majburiyat hisoblanadi, chunki har bir inson hayotining qadrliligi va himoya qilinish huquqi dunyoning tinch va adolatli rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir. Genotsid ko'pincha siyosiy keskinlikning kuchayishi, targ'ibot orqali aholining bir qismini dushman sifatida belgilash, zo'ravonlikni oqlovchi davlat siyosati va hokimiyatning asta-sekin kuch ishlatishga o'tishi orqali shakllanadi. Bunday jarayonni erta bosqichda aniqlash va to'xtatish mexanizmlarining sustligi esa katta insoniy talafotlarga olib keladi. Xalqaro sudlar, xususan G'azo va sobiq Yugoslaviya bo'yicha ishlar, genotsidning huquqiy mezonlarini belgilab bergan bo'lsa-da, amaliyotda siyosiy manfaatlar ko'pincha huquqiy mexanizmlardan ustun kelayotgani sababli xalqaro tizim yetarli darajada samarali ishlaymagan. O'tkazilgan so'rovlarning natijalari ham bu holatni tasdiqlaydi: respondentlarning katta qismi genotsid tushunchasini to'liq bilmaydi, jazo turlari va xalqaro javobgarlik mexanizmlari haqida yetarlicha tasavvurga ega emas. Fuqarolar zamonaviy voqealar G'azo sektori yoki kurdlar masalasini misol qilib keltirishar ekan, mavzu dolzarbligini anglashadi, ammo uning huquqiy asoslari va xalqaro baholash mezonlaridan bexabar qolishmoqda. Normativ-huquqiy tahlillar esa genotsidga qarshi kurashning xalqaro va milliy mexanizmlarida jiddiy kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Xalqaro sud Konvensiyada belgilangan funksiyalarni to'liq bajarmayapti. Bu esa jinoyatni to'g'ri tasniflash va javobgarlikni ta'minlashda amaliy muammolar tug'diradi. Shunday ekan, genotsidning oldini olish uchun xalqaro mexanizmlar faoliyatini kuchaytirish, davlatlar o'rtasida barqaror hamkorlikni rivojlantirish, jamiyatda tolerantlik va inson qadrlarini ulug'laydigan huquqiy madaniyatni mustahkamlash zarur. Milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga moslashtirilishi hamda Konstitutsiyada

mustahkamlangan yashash huquqiga asoslangan insonparvarlik siyosatining amalda qo'llanishi genotsidga qarshi kurashning eng muhim kafolatlaridan biridir.

Shuningdek, genotsid bilan kurashish uchun xalqaro organlarning rolini tubdan isloh qilish va millatlararo tinchlik va totuvlikni saqlash kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Genotsid jinoyatining oldini olish va jazolash to'g'risida" konvensiya [https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/genocide.shtml?ysclid=mgjrobj35p81315887](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/genocide.shtml?ysclid=mgjrobj35p81315887)

2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, <https://lex.uz/docs/111453>

3. Lex.uz sayiti <https://lex.uz/docs/-111453#-262594>

4. Saidolimov, Saidxon, Abdusamatova, Gulzoda KURDLAR MUAMMOSI YAQIN SHARQDAGI SIYOSIY BEQARORLIKNING TA'SIRCHAN OMILI SIFATIDA // ORIENSS. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kurdlar-muammosi-yaqin-sharqdagi-siyosiy-beqarorlikning-ta-sirchan-omili-sifatida> (ma'lumotlar obrashcheniya: 10.10.2025).

5. O'tkazilgan so'rovnomadagi statistikani jadval shakliga keltirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanildi.

6. Kun uz sayti <https://kun.uz/news/2025/10/07/aniq-aytaman-bu-genotsid-yordam-flotiliyasi-faollari-isroilning-noinsoniy-munosabatlari-haqida-gapirib-berdi>

7. Daryo.uz sayti <https://daryo.uz/2019/12/11/insoniyat-tarixidagi-eng-yirik-genotsidlar-haqida/>

8. Genotsid nima va G'azo urushini kim genotsid demoqda jurnali <https://www.bbc.com/uzbek/articles/cwy1yy5yq8po/lat>

9. Ruanda genotsidi [https://uz.wikipedia.org/wiki/Ruandadagi\\_genotsid](https://uz.wikipedia.org/wiki/Ruandadagi_genotsid)

10. Arman genotsidi [https://uz.wikipedia.org/wiki/Arman\\_genotsidi](https://uz.wikipedia.org/wiki/Arman_genotsidi)

11. International Criminal Court. Rome Statute of the International Criminal Court. 1998.

12. Genocide Watch. Reports and Alerts. <https://www.genocidewatch.com>

13. Power S. A Problem from Hell: America and the Age of Genocide. New York: Basic Books, 2002.

14. Karimov N. Xalqaro jinoiy huquq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019. (Genotsidga oid bob mavjud.)

15. Rasulov R., Islomov Z. Xalqaro huquq. – Toshkent: "Adolat", 2017. (Ommaviy qirg'inlar va xalqaro javobgarlik masalalari yoritilgan.)